

QADIMGI HINDISTONDA HIND SIVILIZATSIYASINING PAYDO BO'LISHISHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**SHDPI 1-KURS TALABASI **Avlaqulova Charos**SHDPI 1-KURS TALABASI **Xaitov Nazirbek**

ANNOTATSIYA: Hindiston diyori jahonning qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Hindiston tarixining ibtidosi bo'lgan Qadimgi Hind sivilizatsiyasi haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: Mohenjadar, Mahabhabharata, Xarappa (Panjob viloyati), Veda, Avidya, Svastika, Gang, Adiryan, Bengal, Himolay, Tlidas.

KIRISH. Insoniyat tarixida ishlab chiqaruvchi xo'jalikning, shahar madaniyati va yozuvning, xullas, sivilizatsiyaning ilk vatani Yaqin Sharq bo'lib, insoniyatning madaniy yutuqlari shu yerdan butun ko'hna dunyoga, g'arb-u sharqqa tarqalgan degan fikr XX asr boshlarida ham hukmron ilmiy karash edi. Ammo keyingi tadqiqotlar bu qarashga tuzatishlar kiritib bormoqda. Dastlabki shunday kashfiyotlar XX asrning 20- yillaridayoq amalga oshirildi: hind arxeologlari Saxni va Banerji Hind daryosi bo'yida Mesopotamiyadagi shumerlar va Misrdagi ilk fir'avnlarni davridayoq mavjud bo'lgan qadimgi sivilizatsiya qoldiqlarini ochdilar. Olimlar ko'z oldida rivojlangan hunarmandchilik, ajoyib shaharlar va o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan sivilizatsiya namoyon bo'ldi.

Dastlab arxeologlar ushbu sivilizatsiyaning eng yirik shahar markazlari – Xarappa va Mohenjo-Daroni ochdilar. Bu sivilizatsiya ochilgan birinchi shahar nomidan kelib chiqib, Xarappa sivilizatsiyasi deb ataldi. Shu tariqa Hind sivilizatsiyasini qadimiylik bo'yicha yer yuzida Mesopotamiya va Misr sivilizatsiyalari bilan tengdosh bo'lgan uchinchi sivilizatsiya deb atash mumkin. Ammo ba'zi tadqiqotchilar bu sivilizatsiyaning endi o'rganilayotganligini nazarda tutib, eng qadimgi bo'lishi ham mumkin, degan taxmini aytmoqdalar. Hind sivilizatsiyasi ham boshqa qadimgi sivilizatsiyalar qatori daryolar bo'yida shakllangan va sug'orma dehqonchilikka asoslangan edi. Qadimgi Hind sivilizatsiyasining qirg'oq bo'ylab tarqalish moyiligiga qarab olimlar unga Mesopotamiyaning ta'siri kuchli bo'lganligi haqida tahmin qilishadi. Darhaqiqat, Mesopotamiya sivilizatsiyasi qadimgi Hind sivilizatsiyasi mavjudligidan dalolat beruvchi dastlabki manbalardan bir necha asr oldin vujudga kelgan. Bundan tashqari, ularning shahar hayotida ham anchagina umumiylik bor: «o'rta sinf» shaharliklarning nisbatan to'kis yashash darajasi, yuqori darajadagi fuqarolik ongining shakllanganligi (bu faqat Mesopotamiyadagi manbalar bilan isbotlangan bo'lib buni tasdiqlovchi hind manbalari topilmagan) bu umumiylikning eng muhim jihatlari. Ammo shaharni rejalashtirish, ichimlik suvi ta'minoti va oqava suvni chiqarishning puxtaligi Mohenjo-Daro aholisining yuksak turmush madaniyatidan dalolat beradi. Bu ikki sivilizatsiyalarning o'xshash tomonlari umumiy xarakterga ega bo'lib, mayda farqlar bilan izohlanmaydi.

Janubiy Osiyoda eng qadimgi bo'lgan hind sivilizatsiyasi m.a. III ming yilliklardayoq, ibtidoiy-jamoa tuzumining emirilishi va sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi davrida asosan Hindistonning shimoliy qismida, Hind daryosi vodiysida (hozir asosan Pokiston hududida, taxminan m.a. XXII-XVI asrlar) shakllana boshlagan. Qadimgi Hind sivilizatsiyasi tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Eng qadimgi Hind sivilizatsiyasi. Bu davr taxminan m.a. XXIII-XVIII asrlar bilan belgilanadi. (Ilk shaharlarning paydo bo'lishi).
2. «Veda» davri. M.a. XIII-VII asrlar. Shimoliy Hindistonda ilk davlatlarning yuzaga kelishi.

3. «Budda davri». M.a. VI-III asrlar. Bu davr buddaviylik dinining paydo bo'lishi va tarqalishi, umumhind davlatining tashkil topishi bilan xarakterlanadi.

4. «Klassik davr». M.a. II asrdan eramizning V asrigacha. Janubiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyoti va madaniyatini gullab-yashnagan davri.

Qadimgi Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Hindiston Osiyoning janubida joylashgan mamlakat. Uning shimol tomoni Himolay tog'lari, qolgan uch tomoni esa Hind okeani, Eriteriya dengizi va Bengal ko'rfazi suvlari bilan o'ralgan. Mamlakatning markaziy qismini Dekan tog'lari egallab yotadi. Hindistondan Hind, Gang, Jamna, Braxmaputra va boshqa daryolar oqib o'tadi. Mamlakat iqlimi shimolda mo'tadil, hatto tez-tez qorlar yog'ib turadi. Uning janubiga tushilgan sari iqlim issiqlashib, chekka janubda hatto qish bo'lmaydi. Yog'ingarchilik mavsumlarida Gang, Hind va Braxmaputra sohillarida jala quyib tez-tez toshqinlar bo'lib turadi. Hindistonning o'simlik va hayvonot dunyosi boy. Hindiston odamzodning ilk vatanlaridan biri hisoblanadi. U yerda 600–500 ming yillardan beri aholi yashab keladi. Qadim zamonda bu mamlakatda dravid, bengal, bihar, gujarat, assam va boshqa qabilalar yashaganlar. Keyinchalik bu yerga oriylar, shaklar, xioniy, eftoliy kabi O'rta Osiyo va Eron qabilalari kelib joylashganlar. Hindiston yarim orolining shimoli-g'arbidan Hind daryosi oqib o'tadi. Bu daryo sanskrit tilida Sindxu, pushtu tilida esa Abbasin – «daryolar otasi», – deyiladi. Bu daryoning besh irmog'i oqib o'tadigan joy Panjob – Beshsuv deyiladi. Hind daryosi, ayniqsa uning yuqori qismi Panjobda ibtidoiy davrdan boshlab odamlar yashab kelishgan. Hindistonda yashagan aholi tirikchiligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Dehqonlar vohadagi unumdor yerlarni o'zlashtirganlar. O'zlashtirilgan tekis yerlarga suv kanal va ariqlar orqali kelgan. Balandroq yerlarga esa charxparraklar orqali suv chiqarilgan. Dehqonlar datalarga bug'doy, arpa, no'xat, sholi, shakarqamish va g'o'za ekanlar. Hindiston g'o'za – paxtaning ilk vatanidir. Ular banan, anjir, anor, qovun, o'rik, olma ekib polizchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullanganlar. Dalalarda har turli sabzavotlar ham yetishtirilgan. Dehqonchilikda tosh, mis va jezdani qilingan qurollardan foydalanganlar. Hind vohasida, ayniqsa Panjobda sero't yaylovlari ko'p bo'lgan. Shu bois aholi qoramol, qo'tos, zubr, qo'y, echki, cho'chqa va eshak boqib, chorvachilik bilan shug'ullangan. Qadimgi hindlar yovvoyi fillarni qo'lga o'rgatib, ulardan xo'jalik va harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Dehqonchilik va chorva mahsulotlari aholini oziq-ovqat, jun, teri kabi xomashyo bilan ta'minlagan. Eng Qadimgi Hindistonda hunarmandchilik ham rivoj topgan edi. Hind ustalari tosh, mis, jez, kumush, oltin va qimmatbaho toshlardan mehnat va jangovar qurollar, muhrlar, uy-ro'zg'or, zargarlik buyumlari va turli jihozlar tayyorlaganlar. U yerda to'qimachilik, kulolchilik, qayiqsozlik, hatto kemasozlik ham ancha rivoj topgan edi. Qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da (m.a. IV-III asrlar) ijtimoiy mehnat taqsimotining, hukmronlik va bo'ysunish institutlarining mavjudligi aytiladi. Hindistondagi iqtisodiy g'oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik «Artxashastra» (m.a. IV-III asrlar oralig'ida)dir (tom ma'nosi bo'yicha ifoda, amaliy hayot to'g'risidagi fan, bu asar m.a. III-II asrlarda to'ldirilgan). Bu qadimiy va muhim tarixiy yodgorlikdir (u Chandragupta I podsholigi davrida podsho maslahatchisi Kautile Bishnugupta tomonidan yozilgan degan fikr bor). Unda qulchilikni mustahkamlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Qulchilik eng past tabaqalarga xos narsa deb sanaladi. Bu asarda «buyumning qiymati» muammosi ko'tarilgan, qiymat miqdori «ish kunlari» bilan belgilangan, rag'batlantirish esa mehnat natijalariga mos ravishda belgilanishi kerak, deyilgan. Bu asarda davlatni boshqarish bo'yicha takliflar berilgan bo'lib, bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham ilgari surilgan. Masalan, unda mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan. Tovarga bo'lgan ehtiyoj ortganda, uning bahosi qiymatdan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug'ullanuvchilarga alohida urg'u berilgan bo'lib, foyda masalasi ko'tarilgan, foydaning miqdori tovar bahosiga (boshqa harajatlar qatorida) qo'shilib, mahalliy mahsulot uchun 5, chetdan kelgan tovarlar uchun 10 foiz (import o'sha davrda ham afzal) qilib belgilangan. Davlatning iqtisodiy ishlarga aralashuvi qo'llab-quvvatlangan. Qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor berilgan, bo'sh erlar xalqqa bo'lib berilishi va soliq to'lash zarurligi, sug'orish inshootlari qurishga e'tibor haqida so'z yuritiladi. Umuman, davlat mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishi kerak, degan g'oya markaziy o'rinni egallaydi. Moliya sohasida

daromad solig'iga katta e'tibor berilgan. Davlat ba'zi ishlarni rivojlantirishi uchun moddiy va ma'naviy yordam berishi kerak, deyilgan. Mahsulotga baho belgilash, davlatning boyishini ta'minlash (foydani oshirib, sarf-harajatni kamaytirish), hisob-kitobni tartibga solish, har xil o'g'irliklarga qarshi kurashish kerakligi belgilangan. Shu tamoyillarni amalga oshirish tufayli jamiyatdagi norozilik, tengsizlik yo'qoladi, deyilgan. Qadimgi Hindistonda yaratilgan «Veda»larda ham bir qancha muhim iqtisodiy g'oyalar keltirilgan. Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, zardushtiylik (zoroastrizm) dinining (islomgacha) muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto» ya'ni «hayot yo'riqnomasi» (asli «Ovasta») da ham muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan. Jumladan, sun'iy sug'orish asosida dehqonchilik yuritish, ona tabiatni e'zozlash, hayvonlarni asrash, noo'rin so'yimaslik, unga zug'um qilmaslik, tuproq sharoitini yaxshilash masalalari yoritilgan. Moddiy yodgorliklar, manbalar va ilmiy adabiyotlar. Moddiy yodgorliklar, manbalar va ilmiy adabiyotlar. Eng Qadimgi Hindiston madaniyatining vujudga kelishi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. Qadimgi Hind madaniyati ularning xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Hind va Panjob viloyati eng qadimgi hind madaniyatining beshigi hisoblanadi. Yozuv eng qadimgi hind madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan. Arxeologlar Xarappa, Moxenjo-Doro va boshqa joylardagi yodgorliklardan sopol parchalari, muhrlar sathi va toshlarga bitilgan g'alati yozuvlar topishgan. Bu yozuvlar ba'zi jihatlari bilan misr va shumeriylarning iyerogliflariga o'xshab ketadi. Qadimgi hind alifbosining 700 ga yaqin rasm-belgilardan iborat ekanligi aniqlangan. Tekshiruvchilar bu yozuvni o'qishga urinib ko'rganlar. Lekin bu urinish hozircha yaxshi natija bergani yo'q. Qadimgi Hindistonda haykaltaroshlik ham rivoj topgan. Bu jihatdan Xarappa va Moxenjo-Dorodan topilgan erkak kishi, raqqosa ayol va boshqa haykallar diqqatga loyiqdir. Eng qadimgi Hindistonda rassomchilik ham rivoj topgan ekan. Hind vohasi va Panjobdagi eng qadimgi-yodgorliklardan, hatto uzoq Mesopotamiyadan odam, odam qiyofasidagi xudolar, zubr, karkidon, buqa, fil, qo'tos, shuningdek eng qadimgi rasm-belgili yozuv tushirilgan tosh muhrlar topilgan. Sopol va tosh muhrdagi qabartma rasm tasvirlar o'sha qadimiy, ko'hna davrdagi rassomchilikning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Arxeologik topilmalarga qaraganda Hindistonda qadimgi tosh asridayoq odamlar yashagan. Eneolit, ayniqsa, bronza davrida Hindistonning g'arbiy hududlarida o'ziga xos Qadimgi Hind sivilizatsiyasi shakllanadi. Uning eng rivojlangan davri mil. avv. III ming yillik – II ming yillik boshlariga to'g'ri keladi. Bu sivilizatsiya markazlari yirik shaharlar bo'lib, ularning xarobalari zamonaviy Xarappalarning eng qadimgi aholi punktlari miloddan avvalgi 3500 yillardan boshlab Pokistonning Balujiston shahrida bo'lgan. Ushbu joylar janubiy Osiyoda miloddan avvalgi 3800-3500 yillarda mavjud bo'lgan xalkolitik madaniyatlarning mustaqil o'sishi hisoblanadi.

Qo'rg'onlar Harappa, Mohenjo-Daro, Dholavira va Ropar kabi joylarda o'yilgan tosh shlyuzlar va istehkom devorlari bilan qurilgan. Qo'rg'onlar atrofida suv omborlari keng doirasi mavjud edi. Mesopotamiya, Misr va Fors ko'rfazi bilan savdo-sotiq miloddan avvalgi 2700-1900 yillarda. Hind daryosi bo'ylarida ham xuddi Misrda, Nil daryosi bo'ylaridagi singari serhosil sug'orma dehqonchilik zonasi mavjud bo'lgan. Qadimgi Hind sivilizatsiyasini olimlarning taxmin qilishlaricha, dravid qabilalari yoki ulardan ham oldingi qabilalar yaratganlar. Juda qadim zamonlardayoq Hindiston qadimgi sharq va antik dunyoning boshqa mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan bo'lib, bu o'zaro madaniy yutuqlarning almashinuviga olib kelgan. Xarappa sivilizatsiyasi davridayoq Mesopotamiya, Eron va O'rta Osiyo bilan, Mauriylar davrida Misr, Janubi-sharqiy Osiyo va Uzoq Sharq bilan madaniy va savdo aloqalari o'rnatilgan. Antik mualliflarning xabar berishlaricha, hind elchilari imperatorlar Avgust, Trayan, Adrian va Avrelianlar davrida Rim imperiyasiga ham yetib borishgan. Og'ir geografik sharoitga qaramasdan, shimoli-g'arb tomondan Hindistonga o'tish yo'li bo'lib, qadimda bu yo'ldan oriylar va O'rta Osiyolik ziroatchi qabilalari foydalanganlar. Hayoti tabiat inijliklariga bog'liq bo'lgan aholi suvga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lgan. Ming yillik tarixga ega bo'lgan suvga sig'inish bugun ham davom etmoqda: hindlar sersuv daryo — Gangni muqaddas sanaydilar, unga sig'inadilar.

Xulosa o'rnida, xususan, mil.avv. I ming yillik ma'naviy g'alayonlar jarayoni bilan ajralib turadi. Bu davrda dastlab ikki tamoyil vujudga keldi: umuminsoniy birlik va shaxsning ma'naviy mustaqilligi. G'oyalar erkinligi boshlanib inson o'z hayotini unga asoslanib qurdi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi G'arbga nisbatan ertaroq boshladi. Yunonlar madaniyati Qadimgi Sharq madaniyati ta'sirida juda yuksaldi, buni ellinlarning o'zlari ham e'tirof etishgan. Bu ta'sirlar natijasida shunday davr boshlandiki Sharq va G'arb madaniyatlari sintezi ellinistik madaniyatni vujudga keltirdi: YunonBaqtriya va gandxar san'ati, iskandariya fani, fayum prortretlari bunga misol bo'la oladi. Qadimgi Sharq bizga barhayot boyliklarni qoldirdi. Bular "Gilgamesh" va "Mahobhorat" dostonlari, Kalidasi drammalari va Chjuanszining ramziy masalalari, Misr ehromlari va Buyuk Xitoy devori va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.G.Redder. E.A.Cherkasova. Qadimgi Dunyo tarixi I- qism. Yu.C.Krushkol tahriri ostida. Toshkent-1974.
2. Gerodot. Istoriya. M –I, 1972 yil.
3. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
4. ABDUJABBOR KABIROV "QADIMGI SHARQ TARIXI" TOSHKENT - 2016 "Tafakkur" nashriyoti
5. <https://uz.socmedarch.org/indus-civilization-timeline-and-description-171389-6274>
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.

18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).